


KONFERENSIYA

“JIZZAX VILOYATI IJTIMOIIY-IQTISODIY
RIVOJLANISHINING ASOSIY
YO’NALISHLARI: MUAMMO VA YECHIMLAR”



RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANI

2025-yil 21 noyabr

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI**



**JIZZAX VILOYATI IJTIMOIIY-IQTISODIY
RIVOJLANISHINING ASOSIY YO‘NALISHLARI:
MUAMMO VA YECHIMLAR**
*mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari
to‘plami*
(2025-yil 21-22-noyabr)

JIZZAX-2025

Jizzax viloyati ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy yo‘nalishlari: muammo va yechimlar. Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami – Jizzax: O‘zMU Jizzax filiali Iqtisodiyot va turizm kafedrası, 2025-yil 21-22-noyabr. 557-bet.

Respublika miqyosidagi ilmiy-texnik anjuman materiallarida zamonaviy kompyuter ilmlari va muhandislik texnologiyalari sohasidagi innovatsion tadqiqotlar aks etgan.

Globalashuv sharoitida davlatimizni yanada barqaror va jadal sur‘atlar bilan rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar samarasini yaxshilash sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlariga alohida e‘tibor qaratilgan. Zero iqtisodiyotning, ijtimoiy sohalarni qamrab olgan modernizatsiya jarayonlari, hayotning barcha sohaslarini liberallashtirishni talab qilmoqda.

Ushbu ilmiy ma‘ruza tezislari to‘plamida mamlakatimiz va xorijlik turli yo‘nalishlarda faoliyat olib borayotgan mutaxassislar, olimlar, professor-o‘qituvchilar, ilmiy tadqiqot institutlari va markazlarining ilmiy xodimlari, tadqiqotchilari, magistr va talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari mujassamlashgan.

Mas‘ul muharrirlar: DSc.prof. Turakulov O.X., t.f.n., dots. Baboyev A.M.

Tahrir hay‘ati a‘zolari: p.f.d.(DSc), prof. Turakulov O.X., t.f.n., dots. Baboyev A.M., t.f.f.d.(PhD), prof. Abduraxmanov R.A., p.f.f.d.(PhD) Eshankulov B.S., p.f.n., dots. Alimov N.N., p.f.f.d.(PhD), dots. Alibayev S.X., t.f.f.d.(PhD), dots. Abdumalikov A.A, p.f.f.d.(PhD) Hafizov E.A., f.f.f.d.(PhD), dots. Sindorov L.K., t.f.f.d.(PhD), dots. Nasirov B.U., b.f.f.d. (PhD) O‘ralov A.I., p.f.n., dots. Aliqulov S.T., t.f.f.d.(PhD) Kuvandikov J.T., i.f.n., dots. Tsoy M.P., Sharipova S.F., Jo‘rayev M.M.

Mazkur to‘plamga kiritilgan ma‘ruza tezislarning mazmuni, undagi statistik ma‘lumotlar va me‘yoriy hujjatlarning to‘g‘riligi hamda tanqidiy fikr-mulohazalar, keltirilgan takliflarga mualliflarning o‘zlari mas‘uldirlar.

Mazkur strategiyalarni O‘zbekiston sharoitida joriy qilish yashil energiya bozorini rivojlantirish, energetika xavfsizligini ta’minlash va iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Azimov I. Barqaror iqtisodiyotda yashil energetika taraqqiyoti //Journal of science-innovative research in Uzbekistan. – 2024. – T. 2. – №. 10. – C. 358-368.
2. Bashirova Y. YASHIL LOYIHALARDA ENERGIYA SAMARADORLIKNI BAHOLASH VA OSHIRISH YONALISHLARI //Прикладные науки в современном мире: проблемы и решения. – 2025. – Т. 4. – №. 8. – С. 4-7.
3. Abdusalomovna D. N. “YASHIL IQTISODIYOTNI” RIVOJLANTIRISHDA TIKLANADIGAN ENERGIYA MANBALARINING O‘RNI //TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR. – 2025. – Т. 2. – №. 2. – С. 105-108.
4. Abdusalomovna D. N. “YASHIL IQTISODIYOTNI” RIVOJLANTIRISHDA TIKLANADIGAN ENERGIYA MANBALARINING O‘RNI //TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR. – 2025. – Т. 2. – №. 2. – С. 105-108.
5. Faxriddin o‘g‘li X. S. ENERGIYA SIYOSATI VA" YASHIL" IQTISODIYOTGA O'TISH //JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS. – 2025. – Т. 87. – №. 1. – С. 300-307.
6. Valijonovna H. S. O‘ZBEKISTONDA EKOLOGIK MUAMMOLARNI YECHISHDA YASHIL ENERGETIKA TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNI RAG‘BATLANTIRISH SIYOSATLARI //" YURT FAXRI". – 2025. – Т. 1. – №. 1.
7. Shirinova S., Fayzullayeva X., Amonova S. YASHIL IQTISODIYOT VA YASHIL ENERGETIKANING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI //Наука и технология в современном мире. – 2025. – Т. 4. – №. 12. – С. 98-102.

QURILISH VA ENERGETIKA SOHASIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR TAHLILI

Fozilova Dildora Odil qizi

*Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali
4-kurs talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada qurilish materiallarini ishlab chiqarish jarajonida zamonaviy texnologiyalarini qo‘llashning samaradorligi, energetika sohasida yangi innovation texnologiyalar yoritilgan. Maqolada asosan energiya samarador muxandislik tizimlari, uning vazifasi, innovatsiyalarning mohiyati va klassifikatsiyasi, individual qurilish uchune nergiya samarador texnologiyalar, energiyadan foydalanishni kamaytirish va qayta tiklanuvchi energiya, energiyadan

foydalanish samaradorligini oshirish ularning yechimlari tahlil qilingan holda bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: energiya, yadroviy, sanoat, isitish, ekologik toza, transport, kinetik, potentsial, mexanik, issiqlik, yorug‘lik, innovatsiya, ixtiro, texnologik, boshqaruv- tashkilotchilik, iqtisodiy, marketingli, sotsial, ekologik texnologiya, innovatsiya, zamonaviy qurilish materiallari, xom ashyo bazasi, maxsulot,

Annotation: This article discusses the effectiveness of using modern technologies in the production process of building materials, new innovative technologies in the energy sector. The article mainly discusses energy-efficient engineering systems, their functions, the essence and classification of innovations, energy-efficient technologies for individual construction, reducing energy consumption and renewable energy, increasing energy efficiency, and their solutions.

Keywords: energy, nuclear, industry, heating, environmentally friendly, transport, kinetic, potential, mechanical, heat, light, innovation, invention, technological, management-organizational, economic, marketing, social, ecological technology, innovation, modern building materials, raw material base, product.

Qurilish va energetika — jamiyat taraqqiyotining eng muhim tarmoqlaridan hisoblanadi. Bu sohalarga innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish ishlab chiqarish jarayonlarini takomillashtirish bilan birga, ekologiyani muhofaza qilish, resurslardan samarali foydalanish hamda energiya tejamkorligini oshirishda katta ahamiyatga ega. Qurilishda zamonaviy materiallar, avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari, raqamli yechimlar va robototexnika jadal rivojlanayotgani kabi, energetika yo‘nalishida qayta tiklanuvchi energiya manbalari ulushining ortib borishi hamda energiya saqlash texnologiyalarining rivojlanishi bu sohalarining yangi bosqichga ko‘tarilishiga olib kelmoqda. Shu bilan birga, innovatsiyalarni joriy etishda uchraydigan texnik, iqtisodiy va ekologik muammolarni bartaraf etish ham dolzarb vazifa hisoblanadi. Maqolaning keyingi bo‘limlarida qurilish va energetika sohalarida qo‘llanilayotgan innovatsion texnologiyalar tahlili, ularning amaliy tatbiqi hamda kelajakdagi rivojlanish istiqbollari yoritib beriladi.

Yangi iste‘molchilik xususiyatlari yoki ishlab chiqarish tizimlarining samaradorligini sifatli oshirish orqali bozorga mahsulot (tovarlar va xizmatlar)ni yetkazib berish – innovatsiyagamisol bo‘la oladi. Innovatsiya – foydalanish uchun kiritilgan yangi yoki sezilarli darajadayaxshilangan mahsulot (tovar, xizmat) yoki jarayon, sotuvlarning yangicha uslubi yoki ishamaliyotidagi, ish o‘rinlarini tashkil etishdagi va tashqi aloqalarni o‘rnatishdagi yangi tashkiliyuslub hisoblanadi. “Innovatsiya” atamasi lotincha “novatio” so‘zidan olinganbo‘lib, “yangilanish” (yoki “o‘zgarish”), “in” qo‘shimchasi esa lotinchadan “yo‘nalishida” deb tarjima qilinadi, agar buni yaxlit “Innovatio” ko‘rinishida tarjima qilsak – “o‘zgarishlar yo‘nalishida” deb izohlanadi.

Innovation tushunchasi birinchi bo‘lib XIX-asrning ilmiy tadqiqotlarida paydo o‘ldi. “Innovatsiya” tushunchasi o‘zining yangi hayotini “innovatsion kombinatsiyalar” nitahlil qilish, iqtisodiy tizimlarning rivojlanishidagi o‘zgarishlar natijasida XX-asrning boshida avstriyalik va amerikalik iqtisodchi Y. SHumpeterning ilmiy ishlarida boshlagan.

Ilm-fan – bu ma’lum mablag‘larni bilimlar va g‘oyalarga aylantirish.

Innovatsiyalar – bu bilimlar va g‘oyalarni mablag‘larga aylantirishdir.

Ixtiro – bu yangi konsepsiyani yaratish demak. Innovatsiya – bu ixtironing amaliy ahamiyatini ajratib ko‘rsatish va uni muvaffaqiyatlisotiladigan mahsulotga aylantirish.

Mamlakatimizda qurilish materiallari ishlab chiqaradigan sakkiz mingga yaqin korxona faoliyat ko‘rsatadi. Ayni paytda ular 100 dan ortiq turdagi qurilish materiallarini ishlab chiqarmoqda. Mavjud uy-joylar va ijtimoiy binolarning energiya iste‘moli texnik jihatdan o‘xshash iqlimiy sharoitga ega bo‘lgan mamlakatlarga nisbatan taxminan 3 baravar yuqori.

O‘tgan 10–15 yil davomida energiya tejamkor dasturlar, nazariy islohotlar, yangi uskunalar va eksperimental ob‘ektlar yuzasidan faol munozaralar olib borilgan bo‘lsa-da, shahar va posyolkalarning energiya zichligiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatilmadi. Biroq bu jarayon energiya sarfini kamaytirishga xizmat qiladigan real sharoitlarning yaratilishiga asos bo‘ldi.

Energiyani tejaydigan inshootlarning rivojlanishi shimol xalqlarining tarixiy madaniyati bilan bog‘liq. Ular o‘z uylarini issiqlikni uzoq vaqt saqlaydigan, kam resurs talab qiladigan tarzda qurishga intilganlar. Uylar energiya samaradorligining klassik namunasi — issiqlikni yaxshi ushlab turuvchi qalin devorlar, murakkab lombardlar bilan jihozlangan an‘anaviy ruscha pechka hisoblanadi. Rossiyada uylarning energiya iste‘moli bir kvadrat metr uchun yiliga 400–600 kVtni tashkil etadi. 2020 yilga kelib bu ko‘rsatkichni 45 foizga kamaytirish rejalashtirilgan edi.

Moskvada passiv uy texnologiyasi asosida (Nikulino-2 uy-joy majmuasi) eksperimental binolar qurilgan. Sankt-Peterburg yaqinida ham passiv uylarning demontaj loyihasi amalga oshirilgan va ilk passiv turar-joy qurilishi boshlangan. Nijniy Novgorodda esa quyosh kollektorlari, issiqlik pompasi, vertikal shamol generatorlari hamda issiqlik almashinuviga ega havo tizimi o‘rnatilgan namunaviy uy qurib namoyish etildi. Ukrainada birinchi passiv uy 2008 yilda bunyod etilgan bo‘lib, hozirda uchta shahrida shunday uylar qurilishi davom etmoqda.

2010 yildan boshlab uy-joy qurilishi va aholining ijtimoiy himoyasi jamg‘armasi tomonidan evakuatsiya qilingan va shoshilinch uy-joyga muhtoj aholi uchun kam quvvatli energiya tejaydigan uylar qurish bo‘yicha eksperimental loyihalar moliyalashtirilmoqda. 2011 yilning boshida Rossiyaning turli hududlarida jamg‘arma ishtirokida energiya samaradorligi yuqori bo‘lgan binolar barpo etildi. Birinchi sertifikatlangan passiv uy 2011 yilda Mosstroy-31 tomonidan, Tomas Knecht loyihasi asosida qurilgan bo‘lib, uning isitish uchun yillik issiqlik sarfi 24 kVt/m² ni tashkil etadi. Tahlillarga ko‘ra, so‘nggi 20 yil ichida jahon bozorida innovatsion mahsulotlar ulushi keskin oshgan. Masalan, AQSHda innovatsion mahsulotlar ulushi 1999 yildagi 31 foizdan 2009 yilga kelib 34,6 foizga, Yaponiyada esa 30,6 foizdan 42,3 foizga, Yevropada 45,5 foizdan 50 foizga oshdi. Jahon bo‘yicha ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalariga (ITTKI) sarflanayotgan xarajatlarning 35 foizi AQSHga, 12 foizi Yaponiyaga to‘g‘ri keladi. Har 1000 kishiga nisbatan ilmiy tadqiqotchilar soni AQSHda 9,7 nafarni, Yaponiyada esa 11 nafarni tashkil etadi.

Yuqori texnologiyali mahsulotlarning eksportdagi ulushi AQSHda 32 foiz, Yaponiyada 24 foizni tashkil etadi. Rivojlangan mamlakatlarda jahon ilmiy salohiyatining 90 foizdan ortig‘i jamlangan bo‘lib, uning umumiy qiymati 2,5–3 trillion AQSH dollariga teng deb baholanadi. Butun dunyo bo‘yicha yuqori texnologiyalar bozorining 80 foizi aynan shu davlatlar hissasiga to‘g‘ri keladi. 2020 yilga borib, ushbu ko‘rsatkich hajmi 4 trillion AQSH dollariga yetishi prognoz qilingan.

Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlarda ishlab chiqarilayotgan jami mahsulotlarning 60–65 foizi innovatsion mahsulotlar bo‘lsa, respublikamizda ushbu ko‘rsatkich hozirda 7–8 foiz atrofida. Shu o‘rinda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning quyidagi so‘zlarini keltirib o‘tish o‘rinlidir:

“Hammamiz yaxshi bilamiz, bugungi davr yuqori texnologiyalar, innovatsiyalar zamonidir. Dunyodagi rivojlangan mamlakatlar o‘z oldiga nafaqat ko‘plab mahsulotlar ishlab chiqarish va bozorga olib chiqishni, balki chuqur bilim va ilmiy yutuqlarga asoslangan innovatsion iqtisodiyotga o‘tish vazifasini qo‘ymoqda.”

2021–2022 yillarda qurilish sohasini rivojlantirish maqsadida Innovatsion rivojlanish vazirligi hisobidan umumiy qiymati 5,184 mlrd so‘mlik bo‘lgan 3 ta amaliy va 1 ta innovatsion loyiha moliyalashtirilgan.

Energetika sanoati — tabiiy resurslardan energiya manbalarini olishga qaratilgan faoliyat sohasi bo‘lib, u qayta tiklanuvchi, yadroviy va qazib olinadigan yoqilg‘idan olinadigan energiyani ishlab chiqarishni, shuningdek isrof bo‘ladigan energiyani qayta tiklash va qayta ishlatishni o‘z ichiga oladi. Energiyani tejash va samaradorlik choralarining qo‘llanilishi energiyaga bo‘lgan talabni kamaytiradi, atrof-muhit muammolarini yumshatadi va jamiyatga foyda keltiradi. Jamiyatlar energiyadan transport, ishlab chiqarish, yoritish, isitish, havo tozalash, aloqa, sanoat, tijorat va maishiy ehtiyojlar uchun foydalanadi. Energiya resurslari birlamchi va ikkilamchi manbalarga tasniflanadi. Birlamchi resurslar tabiiy holatda ishlatilishi mumkin bo‘lsa, ikkilamchi resurslar energiyani qulay shaklga aylantirish natijasida hosil bo‘ladi. Qayta tiklanmaydigan resurslar tez tugaydi, qayta tiklanuvchi resurslar esa doimiy ravishda yangilanadi. Dunyo bo‘yicha minglab mutaxassislar energetika sohasida faoliyat yuritadi. An’anaviy energetika sanoatiga neft sanoati, tabiiy gaz sanoati, elektr energetikasi va atom sanoati kiradi. Yangi energiya sanoati esa muqobil va barqaror ishlab chiqarish, energiyani tarqatish hamda muqobil yoqilg‘ilarni sotishni o‘z ichiga olgan qayta tiklanuvchi energiya tarmoqlaridan iborat.

Elektr energiyasi, transport yoki global miqyosda umumiy energiya ta’minoti uchun 100 foiz qayta tiklanuvchi energiyadan foydalanishni rag‘batlantirish global isish va boshqa ekologik hamda iqtisodiy muammolarni kamaytirishga xizmat qiladi. Qayta tiklanuvchi energiya manbalarining rivojlanishi kutilganidan ancha tez amalga oshmoqda. Biroq global energiya tizimiga qayta tiklanuvchi manbalarni integratsiya qilishda bir qator texnologik cheklovlar mavjud. Bugungi kunda kamida 30 ta davlat energiya ta’minotining 20 foizdan ortig‘ini qayta tiklanuvchi manbalar hisobidan qondirmoqda.

Stephen W. Pacala va Robert H. Socolow tomonidan ishlab chiqilgan “barqarorlashtiruvchi takozlar” konsepsiyasi halokatli iqlim o‘zgarishidan saqlanish uchun zarur bo‘lgan energiya strategiyalarini belgilaydi. Bu takozlarning eng ko‘p qismi qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan iborat.

Mark Z. Jacobsonning fikricha, 2030-yilgacha shamol, quyosh va gidroenergetika yordamida barcha yangi energiya ehtiyojini qondirish, 2050-yilgacha esa mavjud tizimlarni to‘liq qayta tiklanuvchi energiya manbalariga o‘tkazish mumkin. Uning aytishicha, bu jarayondagi asosiy to‘siqlar texnologik yoki iqtisodiy emas, balki ijtimoiy va siyosiy omillardir.

Energiyadan samarali foydalanish energiya ishlab chiqarishni to‘g‘ridan-to‘g‘ri oshirmasa-da, mavjud energiya manbalaridan oqilona foydalanish orqali energetika tizimini takomillashtirishga xizmat qiladi. Energiya samaradorligining oshishi mahsulot yoki xizmatni taqdim etish uchun zarur bo‘lgan energiya miqdorini kamaytiradi. Misol uchun binolarni izolyatsiya qilish orqali qulay haroratni saqlab turish uchun kamroq isitish va sovutish energiyasidan foydalanish mumkin. Yilni lyuminestsent lampalar esa uchdan ikki baravar kam energiya sarflab, akkor chiroqlarga nisbatan 6–10 baravar uzoq xizmat qiladi. Energiya samaradorligini oshirish ko‘pincha zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash va ishlab chiqarish jarayonlarini takomillashtirish orqali amalga oshiriladi. Energiyaadan foydalanishni kamaytirish iste’molchilarning pullarini tejashga yordamberadi, agarda energiya tejamkorligi energiya tejamkor texnologiya narxini qoplasa. Energiya sarfini kamaytirish emissiyalarni kamaytiradi.

Xulosa. Qurilish va energetika sohalaridagi innovatsion texnologiyalarni joriy etish natijasida jamiyatda yuqori sifatli infratuzilma yaratish, energiya samaradorligini oshirish va ekologik izni kamaytirish imkoniyatlari yuzaga keladi. Biroq, ushbu jarayonning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun zarur infratuzilmaning mavjudligi, mustahkam huquqiy asoslar va jamiyatning bunday o‘zgarishlarga tayyorligi muhim omillar hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. A.A. Tulaganov, X.X.Kamilov, M.M. Voxidov, A.A. Sultonov. Zamonaviyqurilishmateriallari, buyumlari va texnologiyalari. O‘quv qo‘llanma. – Samarqand. Zarafshon, 2015.
2. Qosimov E. Qurilish ashyolari. Oliy o‘quv yurtlarining magistrantlari uchun. - darslik. T.:«Mehnat».-2004.
3. Mirziyoev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birgaquramiz. T.”O‘zbekiston”.2016y
4. Qizi Z. R. R. QAYTA TIKLANADIGAN ENERGIYA MANBALARINING IQTISODIY SAMARADORLIGI //JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH. – 2025. – T. 8. – №. 9. – C. 25-28.
5. Umarqulovna M. X. et al. YASHIL TEXNOLOGIYALAR VA “YASHIL IQTISODIYOT” //Modern education and development. – 2025. – T. 35. – №. 1. – C. 169-179.

6. Karimova X. A. Q. XITOYDA ENERGETIKA SOHASI TERMINLARINI STANDARTLASHTIRISH TIZIMI //XXI Asr: Fan va ta’lim masalalari (XXI Век: Вопросы науки и образования). – 2024. – Т. 2. – №. 2. – С. 73-88.
7. Tadjibayeva L., Valijonov U., A’zamova A. IQLIM O ‘ZGARISHINING SANOATGA TA’SIRI VA UNI KAMAYTIRISH CHORA-TADBIRLARI //Современные подходы и новые исследования в современной науке. – 2025. – Т. 4. – №. 3. – С. 18-23.
8. Komilovich E. M. et al. ENERGETIKA BOZORI VA YASHIL IQTISODIYOTGA O ‘TISH //BILGI ÇEŞMESI. – 2025. – Т. 1. – №. 8. – С. 174-181.

YOG‘-MOY SANOATI KORXONALARIDA SOLIQ AUDITINI AXBOROT TAHLILIY TA’MINOTI

A’zamova Aziza Olimjon qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti tayanch doktoranti

Auditorlik hujjatlarining ahamiyati qator omillar bilan izohlanadi. Eng avvalo, ular auditor xulosasini tasdiqlovchi dalillarni taqdim etish zarurati bilan bog‘liq. Shu bilan birga, ushbu hujjatlar auditorlik tekshiruvi jarayonida amalga oshirilgan har bir bosqichni yoritib beradi. Auditorlik hujjatlarida, shuningdek, tekshiruvning amaldagi audit standartlariga muvofiq olib borilgani to‘g‘risida ma’lumotlar qayd etiladi. Bu ma’lumotlar ham tashqi, ham ichki sifat nazorati nuqtai nazaridan muhim hisoblanadi.

O‘zbekiston amaliyotida auditorlik faoliyatida ishchi hujjatlarning tuzilishi, miqdori va shakli masalalari doimiy diqqat markazida turadi. Buning sababi — auditorlik xizmatlarining sifati va samaradorligini tashqi nazorat qilish jarayonida, shu jumladan, hujjatlarda ma’lumotlarni to‘liq va aniq aks ettirish talab qilinishidir.

“O‘zbekistonda ham auditorlik faoliyatini takomillashtirish va shaffofligini oshirish maqsadida, ishchi hujjatlarning standartlarga muvofiqligi va ulardagi ma’lumotlarning yetarliligi ustuvor vazifa sanaladi”[1].

Xalqaro auditorlik standartlarining (XAS) joriy etilishi yuqorida ta’kidlangan muammolarni yanada murakkablashtirdi, chunki ular nafaqat tashkilotchilik, balki metodologik jihatdan ham qo‘shimcha talab va topshiriqlarni oldiga qo‘ydi. Biroq, normativ-huquqiy bazaning takomillashishi va standartlarni amalda tatbiq etish audit hujjatlarini shakllantirish jarayonini soddalashtirdi hamda tashqi va ichki sifat nazoratini oshirishga xizmat qildi. Bu o‘z navbatida auditorlik faoliyatining shaffofligi va samaradorligini mustahkamlashga imkon berdi.

Ishchi hujjatlar quyidagi maqsadlarda qo‘llaniladi: auditni rejalashtirish va uni amalga oshirish jarayonida; bajarilgan ishlar ustidan joriy nazorat o‘tkazishda; auditor xulosasini tasdiqlovchi dalillarni yozishda.

Auditorning ishchi hujjatlariga quyidagi talablar qo‘yiladi: